




2021- yil yanvar-sentabr  
oylarida  
Sirdaryo viloyatida  
xizmatlar sohasining  
rivojlanishi

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi - milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilmalilligini, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqt ni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3044,1** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **721,5** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **122,3 %** ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)

**3044,1** mlrd.  
so'm

**122,3 %**

**721,5** mlrd.  
so'mga

• Xizmatlar hajmi

• O'sish sur'ati

• Hajmning o'sishi

**2021- yil yanvar-sentabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>3044,1</b>	<b>122,3</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	179,6	127,7
Moliyaviy xizmatlar	962,8	132,7
Transport xizmatlari	464,7	110,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	439,9	108,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	70,6	114,0
Savdo xizmatlari	797,2	109,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	79,8	130,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	112,7	155,0
Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	57,0	134,8
Ijara xizmatlari	62,9	142,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	77,6	122,8
Shaxsiy xizmatlar	64,5	122,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	30,0	135,2
Boshqa xizmatlar	84,7	131,1

2021- yil yanvar-sentabr


Dastlabki ma'lumotlar

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

#### Nisbatan past ko'rsatkich



#### Nisbatan yuqori ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar egallaydi. 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi 31,6 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori sur'atlar savdo (26,2 %), transport xizmatlari (15,3 %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (5,9 %) qayd etildi.

**2021- yil yanvar-sentabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,0 %** ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **30,4 %** ini tashkil etgan. 2020- yilning shu davrida me'morchilik sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **0,9 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatda texnik jihozlanish darajasining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoque.


2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yuqori o'sish savdo xizmatlarida (26,2 %), transport xizmatlarida (15,3 %) qayd etildi.

Buning sababi, korxona va tashkilotlar faoliyatini tiklash bilan bir qatorda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish uchun qo'yilgan cheklovlarni yumshatilishi bilan bog'liq.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da**




**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **147,8 %.**

Ta'lim sohasidagi xizmatlarda esa ushbu davrda pasayish kuzatilgan – **82,6 %.**

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

**Transport xizmatlarining o'sish sur'ati, % da  
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)**



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida transport xizmatlarining yuqori o'sishiga Sayxunobod (31,1 %), Sayxunobod (22,3 %) tumanlari, shuningdek, Shirin shahrida (12,1 %) ga erishildi.

Ushbu sohadagi xizmatlar hajmining biroz o'sish sur'ati Boyovut (100,4 %) tumanida qayd etildi.

Transport xizmatlarining ko'rsatilgan eng yuqori ulush ko'rsatkichlari Guliston (28,3 %) va Yangiyer (16,3 %) shaharlariiga hamda Sirdaryo (17,7 %) tumaniga to'g'ri keldi.

Eng past ulush ko'rsatkichi Shirin shahrida qayd etildi (1,4 %).

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **26,2 %** ni tashkil etib, bu esa **797,2 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning hajmi **652,0 mlrd. so'mga** yoki umumiylajmi hajmning **28,1 %** iga to'g'ri kelgan.

### Savdo xizmatlari

652,0

Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm

797,2

88,6

O'sish sur'ati, % da

109,9

2020- y. yanvar-sentabr




2021- y. yanvar-sentabr

**2021- yil yanvar-sentabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismini, aniqrog'i **66,6 %** ini tashkil etdi.

**Savdo xizmatlari tarkibi  
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)**



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **66,1 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

**Hududlar kesimida savdo xizmatlarining tarkibi, % da  
(2021- yilning yanvar-sentabr oylarida)**



- Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda
- Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

**2021- yil yanvar-sentabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, chakana savdo xizmatlarining eng katta ulushi Yangiyer shahrida (79,9 %) va Sardoba (82,8 %), Boyovut (81,5 %), Mirzaobod (78,5 %) tumanlarida kuzatilmoqda.



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo ulushi Yangier shahrida maksimal darajaga yetgan – **81,3 %**.



Shirin shahrida bu ko'rsatkich nisbatan ahamiyatsiz. Bu yerda u atigi **28,3 %** ni tashkil etdi. Biroq, bu shaharda ulgurji savdoda xizmatlar ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) ancha katta – **70,2 %**.

Sardoba – **5,7 %** va Oqoltin – **6,9 %** tumanlari esa nisbatan kichik ulushga ega.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida Shirin shahrida ulgurji savdo ulushi **73,0 %** ni tashkil etdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosidagi xizmatlarning nisbatan yuqori ulushi Oqoltin (**15,9 %**), Xovos (**11,6 %**) Sardoba (**11,5 %**), Guliston (**10,4 %**) tumanlarida qayd etildi.



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ushbu xizmat turining salmoqli ulushi Oqoltin tumaniga to'g'ri kelgan – **10,7 %**.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

### **Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)**

2021- yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **962,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-sentabr oylarida ularning hajmi **706,7** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi **31,6 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi **30,4 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **256,1** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **32,7 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning o'sish sur'ati **147,8 %** ni tashkil etgan.

**2021- yil yanvar-sentabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **94,2 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **3,8 %** ini tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **2,0 %** oralig'iда qayd etildi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi  
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)**



**Sug'urta bo'yicha xizmatlar**

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **94,0 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,5 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **1,5 %**.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2021- yilning yanvar-sentabr oylarida)

O'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **179,6** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2020- yilga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati **127,7 %** ni tashkil etgan.


#### Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ushbu xizmat turi hajmi **138,5** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiyligi hajmining **6,0 %** iga teng bo'lgan.

O'sish sur'ati esa **113,9 %** ni tashkil etgan.

#### Hajmning o'sishi



Xizmatlar hajmi

#### Jami hajmdagi ulushi


2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lif va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamонавиј ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

### Ta'lif sohasidagi xizmatlar




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **112,7 mlrd. soʻmga** yetdi yoki bozor xizmatlari umumiyligi hajmining **3,7 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning yanvar-sentabriga nisbatan oʼsish surʼati **155,0 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori hajmi Sirdaryo (**8,2** mlrd. so'm), Boyovut (**3,7** mlrd. so'm), tumanlarida shuningdek, Guliston (**83,4** mlrd. so'm) va Yangiyer (**6,0** mlrd. so'm) shaharlarida qayd etildi.

**Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd. so'm  
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)**



**Taqqoslash uchun:**

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida Guliston shahri bo'yicha ta'lim sohasi-dagi xizmatlar hajmi 53,2 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

54,6 mlrd.  
so'm

70,6 mlrd.  
so'm

Xizmatlar hajmi

2020- y.  
yanvar-sentabr

2021- y.  
yanvar-sentabr

88,7 %

114,0 %



O'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **16,0** mlrd. so'mga ortgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



2021- y. yanvar-sentabr



**Yashash bo'yicha  
xizmatlar**

2020- y. yanvar-sentabr



**Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash  
bo'yicha xizmatlar**

2021- yil yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **85,4 %** bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-sentabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **89,3 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



**Info**

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

### Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar


2021- y.  
yanvar-  
sentabr



57,0  
mlrd. so'm

1,9 %

134,8 %



Xizmatlar  
hajmi

Xizmatlarning  
jami hajmidagi  
ulushi


O'sish  
sur'ati

39,5  
mlrd. so'm

1,7 %

98,6 %

2020- y.  
yanvar-sentabr



**2021- yil yanvar-sentabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>3044,1</b>	<b>122,3</b>	<b>105,9</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	1380,6	126,0	118,7
Shirin	79,8	119,7	98,9
Yangiyer	233,5	116,7	98,6
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	170,7	123,1	87,4
Guliston	123,1	119,0	98,1
Mirzaobod	148,2	120,2	99,5
Oqoltin	90,9	121,9	95,2
Sardoba	111,1	115,6	89,5
Sayxunobod	145,9	115,6	59,8
Sirdaryo	415,6	121,1	96,9
Xovos	144,7	120,2	96,8


2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

### Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)



2021- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi eng katta ulushni Guliston shahri tashkil etdi – **45,4 %**

(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida – **58,2 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Shirin shahrida – **2,6 %** (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida – **3,0 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

#### Xizmatlar hajmi



#### Hajmnning o'sishi



#### O'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3509,4** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **120,1** % ni tashkil etdi.

#### Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2702,7 ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,0 % da qayd etilgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

**Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**



**2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi**

**Ularning umumiyligi**

**2021- yil yanvar-sentabr**

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**50,4 %**).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **9,3 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **5,8 %** ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,1 %** ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **1,9 %** ni tashkil etdi.

**Savdo – 50,4**

**Boshqa turdag'i  
xizmatlar – 30,5**

**Yashash va ovqatlanish  
– 9,3**

**Tashish va saqlash – 5,8**

**Axborot va aloqa – 2,1**

**Sog'liqni saqlash – 1,9**


2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

### Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **54,4 %** ni tashkil etdi.

### 2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **80,5 %** ga to'g'ri keldi.

1- oktabr  
holatiga

2020- y.

2021- y.

80,5 %

78,6 %